

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI DSc.17/04.06.2021.T.06.02
RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI NAVOIY BO‘LIMI**

NORMAYEV QOBILBEK HUSANOVICH

**SKVAJINALARNI BURG‘ILASHDA TEXNOLOGIK AVARIYALARNI VA
GEOLOGIK ASORATLARNI BARTARAF ETUVCHI TEXNIK
YECHIMLARNI ISHLAB CHIQISH**

04.00.16 – Konchilik mashinalari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of technical sciences**

Normayev Qobilbek Husanovich

Skvajinalarni burg‘ilashda texnologik avariylarni va geologik asoratlarni
bartaraf etuvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish.....3

Нормаев Кобилбек Хусанович

Разработка технических решений по предотвращению технологических
аварий и геологических осложнений при бурении скважин.....21

Normayev Kobilbek Husanovich

Development of technical solutions to prevent technological
accidents and geological complications during drilling.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI DSc.17/04.06.2021.T.06.02
RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI NAVOIY BO‘LIMI**

NORMAYEV QOBILBEK HUSANOVICH

**SKVAJINALARNI BURG‘ILASHDA TEXNOLOGIK AVARIYALARNI VA
GEOLOGIK ASORATLARNI BARTARAF ETUVCHI TEXNIK
YECHIMLARNI ISHLAB CHIQISH**

04.00.16 – Konchilik mashinalari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.4.PhD/T5003 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndki.uz) va «Ziyonet» Axborot ta‘lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djurayev Rustam Umarxanovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Muminov Rashid Olimovich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Ashirov Furkat Usubovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:


«Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ


Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr soat 9⁰⁰ daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba Shoh ko‘chasi 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-04-40; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com.


Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (174 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba Shoh ko‘chasi, 76v -uy. Tel.: (79) 223-56-90; faks: (79) 223-00-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» dekabr kuni tarqatilgan.
(2024 yil «7» dekabrda 154 raqamli reestr bayonnomasi).




I.T. Mislibayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor


I.P. Egamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi v.b., t.f.d., dotsent


A.B. Tuxtashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
goshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda foydali qazilmalarni qidirish va ularni qazib olish, har qanday davlatning xalq xo'jaligi tarmoqlarini oshiruvchi industriyaning asosiy tayanchi hisoblanadi. Burg'ilash ishlari davomida geologik va texnologik avariya va asoratlarni o'z vaqtida tezkorlik bilan bartaraf etish va ularni oldini olish – foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish hamda texnologik va texnik skvajinalar ekspluatatsiyasi muddatlarini kamaytirish imkonini beradi. Skvajinalarni burg'ilash jarayonida yuvuvchi suyuqliklarni yutilishi va burg'ilash kolonnasida sodir bo'ladigan avariya bilan bog'liq to'xtalishlarni bartaraf etish burg'ilash ishlari tannarxini va muddatlarini kamaytirishga yordam beradi, bu esa burg'ilash ishlarining unumdorligi va samaradorligini oshirishga olib keladi. Burg'ilash ishlarining sarf-xarajatlarini, muddatlarini kamaytirish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar oxirigacha yechilmagan va uni hozirda yechish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda skvajinalarni burg'ilash samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, burg'ilash ishlarini amalga oshirishda zamonaviy resurs tejoychi usullarni qo'llash, skvajinalarni burg'ilash jarayonida yuzaga keladigan yuvuvchi suyuqlikni yutilishini bartaraf etish usullarini ishlab chiqish va burg'ilash kolonnasining ishonchliligini oshirish orqali burg'ilash ishlarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada skvajinalarni yuvuvchi suyuqliklarni yutilishini bartaraf etish orqali geologik asoratlarni kamaytirish va burg'ilash kolonnasining elementlarini ishonchliligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda foydali qazilmalarni qazib olish ishlarini jadallashtirish, burg'ilash ishlarini ko'rsatkichlarini oshiruvchi samarali usullarni tadqiq qilish, sodir bo'ladigan geologik va texnologik avariya va asoratlarni kamaytirish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilinib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida¹ «ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, prinsipial jihatdan yangi texnologiya turlarini o'zlashtirish, energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish...» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, skvajinalarni burg'ilash ishlarini samaradorligini oshirish, skvajinalarni barpo etish muddatlarini kamaytirish va burg'ilash ishlari tannarxini kamaytirish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi, 2015-yil 4-martdagi PF-4707-son «Ishlab chiqarishni strukturaviy qayta tuzish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash bo'yicha 2015-2019-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» gi Farmonlari va 2019-yil 17-

¹O'zbekiston Respublikai Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Burg‘ilash ishlarining samaradorligini oshirish nazariyasi va amaliyotini rivojlanishiga Kozlovskiy Y.A., Kalinin A.G., Vlasyuk V.I., Solovyev N.V., Shamshev F.A., Alekseev L.A., Sulakshin S.S., Sidorov N.A., Kovtunov G.A., Tretyak A.Ya., Neskornix V.V., Merkulov M.V., Toshov J.B., Djuraev R.U., Heinz P. Bloch., Fred K. Geitner., Stapel A.G. va boshqalar katta hissa qo‘shishgan, ular tomonidan burg‘ilash ishlarining tannarxini kamaytirish va samaradorligini oshirish, burg‘ilashda yuzaga keladigan avariya va asoratlarni bartaraf etish texnologiyalarini yaratish ishlariga ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan yondashilgan. Biroq, bugungi kunda burg‘ilash kolonnasining qulflari ulanish qismlarida yuzaga keladigan nosozliklarni bartaraf etish imkonini beruvchi samarali texnik yechimlar ishlab chiqish, skvajinalarni burg‘ilashda yuvuvchi suyuqliklarni to‘liq yutilishini bartaraf etish texnologiyalarini ishlab chiqish asosida burg‘ilash ishlarining samaradorligini oshirish muammolari to‘liq o‘rganilmagan.

Shu munosabat bilan konchilik sanoati uchun muhim bo‘lgan burg‘ilash ishlari davomida geologik va texnologik avariya va asoratlarni samarali bartaraf etish usullarini urganish va burg‘ilash uskunalari ekspluatatsiya jarayonidagi ishonchliligi, unumdorligi va samaradorligini oshirish zaruriyati yuzaga keladi va bu yo‘nalishda keyingi tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar univetsiyeti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining YoBV–Atex–2018–22-sonli «Skvajinalarni havo yordamida burg‘ilashning samaradorligini oshirish uchun resurs tejankor texnologiyalarni ishlab chiqish» (2018–2019-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi skvajinalarni burg‘ilash davomida yuvuvchi suyuqliklarni yutilishini samarali bartaraf etish va burg‘ilash kolonnasida sodir bo‘ladigan nosozliklarni kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

skvajinalarni burg‘ilashda texnologik avariya va asoratlarni bartaraf etish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

skvajinalarni burg‘ilash samaradorligiga salbiy ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

skvajina devorlaridagi darzdorliklar va g‘ovakliklarni geometrik o‘lchamlarini hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqish;

skvajinada burg‘ilash suyuqligini yutilishini bartaraf etish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini konstruksiyasini yaratish;

burg'ilash kolonnasining ishdan chiqqan rezbali qulfli ulanish qismlarini samarali qayta tiklash usulini yaratish;

taklif etilayotgan texnik yechimlarni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida skvajinalarni burg'ilash davomida sodir bo'ladigan geologik va texnologik nosozliklarni bartaraf etish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini burg'ilash davomida yuvuvchi suyuqliklarni yutilishi hodisasi va burg'ilash kolonnasining ishonchliligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida skvajinada yuvuvchi suyuqlikning yutilishini samarali bartaraf etishning va burg'ilash kolonnasida sodir bo'ladigan nosozliklarni kamaytirishning nazariy va eksperimental usullar, laboratoriya va sanoat sharoitida eksperimental tadqiqotlar va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

skvajinalarni burg'ilash jarayonida yuvuvchi suyuqlikning yutilishi kuzatilganda skvajina devorlarining darzdorlik va g'ovakliklarini hajmini hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan;

burg'ilash suyuqligini to'liq yutilishini bartaraf etuvchi burg'ilash snaryadini samarali qo'llanilishi skvajina diametridan kelib chiqqan holda kengayuvchi mustahkamlash quvuri devorining qalinligiga bog'liqligi aniqlangan va kengayuvchi quvur devorini qalinligini optimal kattaligini skvajina diametriga nisbatan tuzilgan chiziqli funksiya orqali aniqlash imkonini beruvchi ifoda yaratilgan;

burg'ilash quvurining rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplab qayta tiklanganda qattqlikni ta'minlashda termik va kriogen ishlov berishning optimal parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi matematik model yaratilgan;

burg'ilash quvurlarining rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplab qayta tiklangandan so'ng uning qattqligi, cho'zilishga bo'lgan nisbiy uzayishi va uzilishga ko'rsatadigan qarshilik kuchini yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlash imkonini beruvchi termik ishlov berish jarayonining optimal ketma-ketligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

burg'ilash suyuqligini yutuvchi skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadini konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

burg'ilash quvurlarni ishdan chiqqan rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplab qayta tiklashning samarali usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keng miqyosdagi laboratoriya va sanoat sharoitidagi tajribalar, burg'ilash uskunalarning ekspluatatsiyasini samarador usullarini ishlab chiqishda ishning asosiy g'oyasining miqdoriy ko'rsatkichlari va qoniqarli darajada muvofiqligi, shuningdek, burg'ilash yuvuvchi suyuqliklarni yutilishini bartaraf etuvchi burg'ilash snaryadining va ishdan chiqqan burg'ilash kolonnasining rezbali qulfli ulanish qismlarini qayta tiklash usulini eksperimental sinovlarining ijobiy natijalari bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati burg'ilash ishlarining samaradorligi, skvajinani burg'ilash jarayonida yuvuvchi suyuqliklarni yutilishini bartaraf etishning zamonaviy usullarini yaratish, skvajina devorlaridagi darzdorliklar va g'ovakliklarni geometrik o'lchamlarini

hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqish va burg'ilash kolonnasidagi nosozliklarni bartaraf etish asosida burg'ilash ishlarining samaradorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati burg'ilash suyuqligini yutuvchi skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadini konstruksiyasini ishlab chiqilganligi va ishdan chiqqan burg'ilash kolonnasining rezbali qulfli ulanish qismlarini samarali qayta tiklash usulini yaratilganligi va burg'ilash ishlarining samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Skvajinalarni burg'ilashda texnologik avariylarni va geologik asoratlarni bartaraf etuvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

burg'ilash quvurining qulfli ulanish qismini qayta tiklash usuli «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ Geologik qidiruv ekspeditsiyasining Markaziy geologik qidiruv partiyasida amaliyotga joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024 yil 30 avgustdagi 23/01-01-07/510-son ma'lumotnomasi). Natijada, qayta tiklangan qulf ulanish qismlarini qo'llash burg'ilash kolonnasida sodir bo'ladigan rezbali qulf ulanish qismlarini uzilishi bilan bog'liq bo'lgan avariylar sonini 65% gacha kamaytirish imkonini bergan;

burg'ilashda yuvuvchi suyuqlikni yutilishini bartaraf etuvchi burg'ilash snaryadi konstruksiyasi «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ Geologik qidiruv ekspeditsiyasining Markaziy geologik qidiruv partiyasida amaliyotga joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024 yil 30 avgustdagi 23/01-01-07/510-son ma'lumotnomasi). Natijada, burg'ilash suyuqligini yutuvchi gorizontlarda to'xtatilgan skvajinalarda burg'ilash ishlarini yangilash, burg'ilash suyuqligini yutilishi sababli sodir bo'ladigan avariylarni oldini olish va og'ir geologik sharoitlarda burg'ilash ishlari tannarxini 45% gacha kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, Respublika nashrlarida 4 ta va xorijiy jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Skvajinalarni burg‘ilashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning tahlili va ularni bartaraf etishning zamonaviy holati**» deb nomlangan birinchi bobida skvajinalarni burg‘ilashda yuzaga keladigan asoratlarning tahlili, yuvuvchi suyuqlikning yutilishining tasnifi va asosiy xususiyatlari, burg‘ilash kolonnasida yuzaga keladigan avariylarning burg‘ilash ishlari samaradorligiga ta’sirini tahlili, skvajinalarni burg‘ilashda texnologik avariylarni va geologik asoratlarni bartaraf etish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar holatini tahlili keltirilgan.

Skvajinalarni burg‘ilash davomida yuzaga keladigan har qanday asoratlar skvajinalarni o‘tish muddatini uzaytiradi, skvajina tannarxini oshiradi, burg‘ilash ishlarining energiya va resurs tejamkorligini kamaytiradi, qolaversa foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini sifatsizlantiradi bu esa o‘z navbatida skvajinalarni burg‘ilash samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Skvajinalarni burg‘ilash davomida yuzaga keladigan yuvuvchi suyuqlikning yutilishi bu o‘ta qiyin va bartaraf etilishining samaradorligi bir necha omillarga bog‘liq bo‘lgan geologik asoratdir. Burg‘ilanayotgan skvajinada yuvuvchi suyuqlikning yutilishini hosil bo‘lishini avvaldan bilish qiyin, yutilish yuzaga kelganda esa uni zudlik bilan bartaraf etishga doim ham erishilavermaydi, qolaversa, ushbu asoratni bartaraf etish juda qimmatga tushadi.

Burg‘ilash ishlarining bajarilishi ko‘rsatkichlariga keskin ta’sir etuvchi yana bir omil bu – skvajina ichida ishlayotgan burg‘ilash kolonnasida sodir bo‘ladigan avariya holatlaridir. Skvajina ichida ishlayotgan burg‘ilash kolonnasining va dolotaning uzilib tushishi bilan bog‘liq avariylar bartaraf etilishi qiyin hamda ko‘p vaqt talab qiladigan asorat hisoblanadi.

Burg‘ilash kolonnasida sodir bo‘ladigan avariylarning katta qismi rezbali qulfli ulanish qismlarini uzilishi bilan bog‘liqligi aniqlandi. Burg‘ilash kolonnasi burg‘ilash uskunasi eng qimmat uzellaridan biri hisoblanadi, shu sababli burg‘ilash kolonnasini rezbali qulfli ulanish qismlarini uzilishini oldini olish, ularni ishchanligini va mustahkamligini oshirish burg‘ilash amaliyotining dolzarb muammosi hisoblanadi.


Dissertatsiyaning «**Skvajinalarni burg‘ilashda yuvuvchi suyuqliklarni to‘liq yutilishini bartaraf etishning texnik yechimlarini ishlab chiqish**» deb nomlangan ikkinchi bobida burg‘ilash suyuqligini yutuvchi gorizontlarning tasnifini tahlili, skvajina devorlaridagi darzdorliklar va g‘ovakliklarni geometrik o‘lchamlarini hisobga olgan holda bo‘shliqlar hajmini hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan, burg‘ilash suyuqligini yutuvchi skvajinalarni alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadining konstruksiyasi yaratilgan va ushbu burg‘ilash snaryadining eksperimental tadqiqotlarining natijalari keltirilgan.

Burg‘ilash suyuqlikning yutilishi jadalligini aniqlash va baholash bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi, bu esa o‘z navbatida yuvuvchi suyuqlikni yutilishini bartaraf etish ishlarini va xarajatlarini oshib ketishiga olib keladi.

Yuvuvchi suyuqliklarning yutilishi yuzaga kelganda suyuqlikning yutilish jadalligi, yutilishni bartaraf etish uchun samarali usulni tanlash skvajina devorlarida mavjud bo‘lgan darzdorliklar, g‘ovakliklar va bo‘shliqlarni hajmiga bog‘liq bo‘ladi,

ushbu bo'shliqlar hajmini avvaldan hisoblash va aniqlash uchun matematik model tuzildi.

Yoriq paydo bo'lish vaqtida uning asosan hajmi, va undagi bosim holati skvajinadagi bosim farqi bilan asosiy yutish xolatini keltirib chiqaradi. Yoriqning gorizont holatda yoki gorizont bilan tashkil qilgan burchagi ushbu holatlarni hisoblashda muhim faktor xisoblanadi. Bunda, suyuqlik yutiladigan yuza quyidagi funksiya orqali bog'liqlik o'rnatadi, bu yerda yoriq uzunligini koordinatalariga bog'liqligi $\omega=f(x,y)$, quyida 1-rasmda skvajina tubidagi bo'shliqning koordinatalar bo'yicha joylashuvining ko'rinishi keltirilgan.



1- yoriqning uzunligi, l_x - yoriqning x koordinata bo'yicha uzunligi, l_y - yoriqning y koordinata bo'yicha uzunligi
1-rasm. Skvajina tubidagi yoriqlik kordinatalar bo'yicha joylashuvining ko'rinishi

$$\begin{cases} l_x = l * \cos \alpha \\ l_y = l * \sin \alpha \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda α -yoriqning x o'qiga nisbatan tashkil qilgan burchagi, grad.

Agar 1. $\cos \alpha = 0^0$; 2. $\cos \alpha = 45^0$; 3. $\cos \alpha = 90^0$ bu mavjud bo'lmagan shart, 4. $\cos \alpha = -45^0$; $-l_x = l_y$ bo'lsa:

$$\begin{aligned} \omega(x, y) &= \frac{4\rho_0}{E} \sqrt{(x_f^2 - x^2) + (y_f^2 - y^2)} = \frac{4(1 - \nu^2)}{E} \sqrt{x_f^2 - x^2 + y_f^2 - y^2} = \\ &= \frac{4(1-\nu^2)}{E} \cdot \sqrt{x_f^2 + x^2 - y_f^2 - y^2}, \end{aligned} \quad (2)$$

bu yerda ρ_0 – yoriqning ichki bosimi, Pa; E– yoriq devorining deformatsiya moduli; $X_f =$ yoriqning “y” o‘qi bo‘yicha kengligi, m; X - yoriq uzunligining “x” o‘qi bo‘yicha kengligi, m; “X” – yoriq uzunligining “y” o‘qi bo‘yicha kengligi, m; ν – Puasson koeffitsiyenti.

Skvajinada hosil bo'luvchi yoriqning uzunligi va joylashish o'rni bu yoriqning yutish qobiliyatini to'liqligicha aniqlab bera olmaydi shuning uchun yoriqning skvajinada hosil bo'ladigan dastlabki yuzasini aniqlash muhim, buning uchun yoriq chizadigan chiziq egri ekanligidan umumiy tenglama orqali kiritamiz:

$$A \cdot x^2 + 2\beta \cdot xy + Cy^2 + 2Dx + 2Ey + F = 0. \quad (3)$$

1. Agar $A=C$ bo'lsa, aylana;
2. Agar $A \cdot C > 0$ va $A \neq C$ bo'lsa, ellips;
3. Agar $A \cdot C < 0$ bo'lsa, giperbola;
4. Agar $A \cdot C = 0$; $A^2 + C^2 \neq 0$ bo'lsa, parabola.

Yuqoridagi shartlarga asosan yoriq yuzasi aylana yoki ellips shakllariga yaqinroq bo'lishi uchun 1- va 2- shartlarga asosan tenglama kiritiladi:

$$Ax^2 + 2\beta xy + Ay^2 + 2Dx + 2E \cdot y + F = 0; \quad (4)$$

$$A(x^2 + y^2) + 2(Bxy + Dx + E \cdot y) + F = 0; \quad (5)$$

$$x^2 + y^2 = R^2; \quad (x^2 + y^2) = \frac{-2(Bxy + D_x + E_y) - F}{A}; \quad (6)$$

$$x^2 + y^2 = \frac{(-2(Bxy + D_x + E_y) + F)}{A} = R^2(Aylana); \quad (7)$$

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 2z \text{ paraboloid tenglama,} \quad (8)$$

bu yerda $2 \cdot z$ bu yoriq uzunligi hisoblanadi. Yuqoridagi tenglamalardan foydalanib quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$\frac{4 \cdot (1 - v^2)}{2 \cdot E} \cdot \sqrt{x_f^2 + y_f^2 - x^2 - y^2} = \frac{x^2}{2 \cdot a^2} + \frac{y^2}{2 \cdot b^2}. \quad (9)$$

Yuqoridagidan kelib chiqib, yoriq hajmi quyidagicha:

$$V_f = \omega(x, y) \cdot S_{yuza};$$

$$V_f = \frac{4(1-v^2)}{E} \cdot z \cdot (P_0 - S_h) \sqrt{x_f^2 + y_f^2 - (l \cos \alpha)^2 - (l \sin \alpha)^2}. \quad (10)$$

Ifodani nolga teng bo'lmashligi uchun quyidagi shartlarni o'rinli deb qaraymiz:

$$l > l_x \quad l > l_y \quad P_0 > S_n \quad z > 0;$$

$$x_f \geq l_x \quad y_f \geq l_y \quad \frac{\pi}{2} > \alpha > 0.$$

Skvajina diametridan yoriq kiruvchi yuzasi matematik jihatdan katta bo'lmashlik sharti bilan yuqoridagi formulani tahliliga to'xtasak $R > x_f$ $R > y_f$ bo'lishi zarur:

Bog'liq holda

$$V_f = f(x, y, z);$$

$$dV_f = f(x, y, z) + qe.$$

Yoriq hajmini 3 ta koordinata uzunliklari bilan ifodalaymiz:

$$V_f = \frac{4(1-v^2)}{E} \cdot z \cdot (P_0 - S_h) \sqrt{x_f^2 + y_f^2 - (l \cos \alpha)^2 - (l \sin \alpha)^2} +$$

$$+ \frac{C \cdot A}{\sqrt{t-T}} = \frac{4(1-v^2)}{E} \cdot z \cdot (P_0 - S_h) \sqrt{x_f^2 + y_f^2 - (l \cos \alpha)^2 - (l \sin \alpha)^2} +$$

$$+ \frac{x_f y_f^2}{\sqrt{t-T}} \cdot 0.172 \sqrt{\frac{k(P_w - P_p)\Phi}{\mu}}; \quad (11)$$

Ifodani umumlashtirgan xolda, yoriqning hajmini aniqlash imkonini beruvchi ifoda quyidagi holatga keladi:

$$V_f = \frac{4(1-v^2)}{E} z (P_0 - S_h) \sqrt{x_f^2 + y_f^2 - (l \cos \alpha)^2 - (l \sin \alpha)^2} +$$

$$+ \frac{x_f y_f^2 \cdot 0.172}{\sqrt{(t-T) \cdot \mu}} k (P_w - P_p) \Phi. \quad (12)$$


bu yerda, z - yoriqning balandligini o'zgarish koordinatasi; S_h - yoriqda hosil bo'ladigan bosim, Pa; t - vaqt, s; T - yoriqning suyuqlik bilan to'lish vaqti, s; μ - yoriqqa kiruvchi suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsenti; k - tog' jinsining o'tkazuvchanligi; Φ - g'ovaklilik darajasi; P_0 - skvajina tubidagi bosim, Pa; P_w - yoriq bosim, Pa; P_p - yoriq ichidagi bosim, Pa.

Yutuvchi hudud hajmini aniqlashda uch noma'lumli matematik model vujudga keldi. Bu noma'lum koordinata o'qlariga oraliq qiymatlar berish orqali yutuvchi hududni haqiqiy holatiga yaqin shaklni va hajmini aniqlash imkonini beradi.

Skvajinalarni burg‘ilash jarayonida yuvuvchi suyuqliklarning katastrofik yutilishi kuzatilganda, bu yutilish katta hajmli g‘ovakliklar va darzdorliklar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, bunday holatlarda skvajinada suyuqlikni yutuvchi hudud alohida mustahkamlovchi quvur bilan mahkamlanadi. Biroq, bunday holda o‘rnatilgan mustahkamlovchi quvurning devorlarining qalinligi miqdorida skvajinaning diametri qisqaradi, bu esa o‘z navbatida bir qator texnologik qiyinchiliklarga olib keladi.

Skvajinalarni burg‘ilash davomida yuvuvchi suyuqliklarni to‘liq, ya‘ni katastrofik yutilishi yuzaga kelganda, skvajinaning boshlang‘ich diametrini saqlab qolgan holda, yutuvchi hududini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadining konstruksiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konstruksiya quyida 2-rasmda keltirilgan.

Skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini konstruksiyasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining «Geologiya qidiruv ekspeditsiyasi»da tajriba-sinovlaridan o‘tkazildi. Bunda, chuqurligi 160 metr, diametri 112 mm, tog‘ jinsining qattqlik koeffitsiyenti $f=8$ ga teng bo‘lgan skvajinaning 107- metr chuqurligida uchragan katta hajmli darzliklar uzunligi 2 metrga teng bo‘lgan kengayuvchi obsadka quvuri bilan mustahkamlandi. Taklif etilayotgan kengayish qobiliyatiga ega bo‘lgan kengaytirgich skvajinaning 107-108-metr chuqurligida, skvajina diametrini 112 mm dan 122 mm gacha kengaytirish imkonini berdi va shundan so‘ng boshlang‘ich diametri 104 mm bo‘lgan kengayish xususiyatiga ega obsadka quvuri ushbu uchastkada diametri 122 mm gacha kengaytirilib skvajina devori mustahkamlandi.



I-vtulka; II-shtanga; III-kengaytirgich;
IV-Jins parchalovchi asbob;
1-perexodnik; 2-kengayuvchi quvur; 3-
kallak; 4-ulanish qismi;
5-obechayka; 6-quloqchalar

2-rasm. Skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadining konstruksiyasi


O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan kengayish va siqilish qobiliyatiga ega bo'lgan burg'ilash kengaytirgichining yangi konstruksiyasi hamda skvajinaning chuqurligi bo'yicha alohida uchastkalarining darzlik va g'ovakliklarini yopish imkonini beruvchi, kengayuvchi obsadka quvurli burg'ilash snaryadini qo'llash skvajinada yuvuvchi suyuqlikning yutilishini bartaraf etish imkonini berishi aniqlandi.

Skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadini konstruksiyasini qo'llaganda kengayuvchi quvurni suyuqlikni yutuvchi hududga joylashtirish va joylashtirilgandan so'ng uning ishonchli qotirilishi juda mushkul jarayon hisoblanadi. Bunda, kengayuvchi quvurning qisilishga ko'rsatiladigan qarshilik kuchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Kengayuvchi quvur osenkovkalangan profil listdan tayyorlangani sababli uning qisilishga ko'rsatadigan qarshilik kuchi listning qalinligiga bog'liq bo'ladi.

Diametri kichik bo'lgan skvajinalarda yuvuvchi suyuqlikning yutilishi kuzatilganda qalinligi katta bo'lgan profil listidan kengayuvchi quvur sifatida foydalanish juda murakkab hisoblanadi. Aslida esa qalinligi yuqori bo'lgan listdan kengayuvchi quvur sifatida foydalanish juda afzal hisoblanadi, chunki uning qisilishga ko'rsatadigan qarshilik kuchi yuqori bo'lganligi sababli, skvajina devoriga mustahkam o'rinishadi va ishonchiligi yuqori bo'ladi. Biroq, bunday quvurni, skvajina tubiga tushirish va joylashtirish juda qiyin, bunday quvurni tushirish, burg'ilash va kengaytirish jarayonida ochilib ketishi xavfi yuqori bo'ladi, shuning uchun qalinligi 0,3-0,45 mm oraliqidagi profil listlarini kengayuvchi quvur sifatida ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diametri katta bo'lgan skvajinalarda esa, yuqoridagi mulohazaning aksi kuzatiladi, ya'ni qalinligi kichik bo'lgan profil listdan kengayuvchi quvur yasalganda, uning diametri ortganligi sababli siqilishga qarshi kuchi quvurni ochish uchun yetarlicha bo'lmaydi, bundan tashqari skvajina devoriga mustahkam o'rinishmaydi.

Kengayuvchi mustahkamlash quvur devorining qalinligini skvajina diametriga nisbatan optimal tanlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba sinovlari natijalarini qayta ishlash natijasida kengayuvchi profil quvurining devorini qalinligini skvajina diametrining kattaligiga bog'liqligi o'rnatildi, ushbu bog'liqlik 3-rasmda grafik ko'rinishida keltirilgan.



3-rasm. Skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadining kengayuvchi quvurini devorini qalinligini (G_{quv}) skvajina diametriga (D_{skv}) bog'liqligi

Bajarilgan tajriba-sinovlari natijalarini va yuqorida 3-rasmdagi grafikda keltirilgan qiymatlarni analitik, korrelyatsion va statistik tahlil qilinib skvajinalarni burg'ilash jarayonida yuvuvchi suyuqliklarni yutilishi kuzatilganda, skvajinalarning

turli diametrlari uchun skvajina devorlarini samarali va ishonchli mustahkamlash imkonini beruvchi skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopuvchi burg'ilash snaryadining kengayuvchi quvurini devorini optimal qalinligini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi ifoda hosil qilindi:

$$\sigma_{quv} = k \times D_{skv} + b, \quad (13)$$

bu yerda σ_{quv} -kengayuvchi quvur devorining qalinligi, mm; D_{skv} - skvajina diametri, mm; b - to'g'rilovchi koeffitsiyent ($D_{skv} 76 \div 151$ mm gacha bo'lganda $b=0,1997$; $D_{skv} 179 \div 320$ mm gacha bo'lganda $b=0,21$).

Olingan natijalarda $f(x)$ o'zgaruvchan qiymatni kengayuvchi quvur devorining qalinligi σ_{quv} , x argumentni D_{skv} skvajina diametri hamda k va b xaqiqiy sonlarni 0,002 va 0,1997 ga teng qilib funksiya tuzildi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar va bajarilgan tajriba-sinov ishlari natijasida burg'ilash suyuqligini yutuvchi skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadining konstruksiyasi yaratildi va undagi skvajina stvolini mustahkamlash vazifasini bajaruvchi kengayuvchi profil quvurini devorini optimal qalinligini skvajina diametriga nisbatan tanlash imkonini beruvchi bog'liqlik yaratildi.

Dissertatsiyaning «**Burg'ilash kolonnasining qulfli ulanish qismlarida yuzaga keladigan nosozliklarni bartaraf etishning texnik yechimlarini ishlab chiqish**» deb nomlangan uchinchi bobida burg'ilash quvurining rezbali ulanish qismlarida yuzaga keladigan nosozliklar, burg'ilash quvurining rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplab qayta tiklashda qattiqlikni ta'minlash uchun termik ishlov berishning optimal parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan va burg'ilash quvurlarini rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplash orqali qayta tiklashning samarali usuli ishlab chiqilgan va eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Burg'ilash kolonnasida sodir bo'ladigan nosozliklar to'g'ridan-to'g'ri skvajina o'tish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni skvajina o'tish jarayonida burg'ilash kolonnasida sodir bo'ladigan avariya bartaraf etilishi eng qiyin, qimmat va ko'p vaqt talab etiladigan asorat hisoblanadi.

Burg'ilash quvurlarining rezba qismini tez yemirilishi, ularda yoriqliklarni paydo bo'lishi burg'ilash ishlarini olib borishda bir qator qiyinchiliklar tug'diradi.


Burg'ilash kolonnasining rezbali qulfli ulanishlarini ishchanligini saqlab turish va ekspluatatsiya jarayoni davomida rezba qismlarini sifatini ta'minlab turish ularning ulanish mustahkamligini ta'minlovchi asosiy sharti hisoblanadi va rezba qismlarini abraziv yemirilishi, sinishi va uzilib qolishi kabi nosozliklarni oldini oladi.

Ekspluatatsiya jarayonida burg'ilash quvurlarini ishdan chiqqan rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplash usuli orqali qayta tiklash burg'ilash kolonnasining ekspluatatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bugungi kunda eritib qayta tiklangan rezbali qulfli ulanish qismlarini sifat ko'rsatkichlari yaxshi emasligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Burg'ilash quvurlarini qulfli ulanish qismlarini eritib qoplash orqali qayta tiklashda, qayta tiklangan detalning sifati qoplovchi materialga bog'liq bo'ladi. Burg'ilash quvurlarining qulfli ulanish qismlari 40XMFA markadagi po'latdan bo'lganligi sababli, ushbu po'latga mos tushuvchi qoplovchi sim va flyus tarkibini

aniqlash talab etilgan edi. Bir qator tajribalardan so‘ng, 480Φ-10, НΠ-30XГСА qoplovchi simni va ЭЛЗ-ФКН-1/55(Б) keramik flyusini 1:1 miqdorida qo‘llash eng samarali qoplama hosil qilishi aniqlandi. Shuningdek, ta‘mirlanayotgan yuzada qoplama hosil qilishni kichik qalinliklarda bir necha qatlamda hosil qilish yuqori samaradorlik berishi aniqlandi.

Burg‘ilash quvurlarini eritib qoplash usuli bilan qayta tiklashda, qoplanuvchi yuzani avvaldan qizdirish orqali samaradorlikni oshirishi mumkinligi sinab ko‘rildi va qayta tiklanadigan yuzani avvaldan 250°C gacha qizdirish yuqori natija berishi aniqlandi. Qulf tanasining va qoplangan yuzaning qattiqligini qoplanuvchi materialning avvaldan qizdirilgan haroratiga bog‘liqligi grafigi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Qulf tanasining (a) va qoplangan yuzaning (b) qattiqligini qoplanuvchi materialning avvaldan qizdirilgan haroratiga (T_{mat}) bog‘liqligi

Burg‘ilash quvurining rezbali qulfli ulanish qismini eritib qoplab qayta tiklangandan so‘ng uning sifat ko‘rsatkichlari bo‘lgan qattiqligi, cho‘zilishdagi nisbiy uzayishi va uzilishga ko‘rsatadigan qarshilik kuchlarini ta‘minlash uchun termik ishlov beriladi, qayta tiklangan detalning sifati aynan termik ishlov berish jarayoniga bog‘liq bo‘ladi.

Termik va kriogen ishlov berishning kompleks usulini qo‘llashda rezbali qulfli ulanish qismini qattiqligini vaqt davomida o‘zgarishini aniqlash imkoniyatini beruvchi matematik model ishlab chiqildi.

Ma‘lumki qattiq jismlarning fazoviy panjarasini tashkil qilgan har bir zarracha (atom yoki ion) muvozanat vaziyati atrofida tebranib turadi. Jismlarning energiyasi shu tebranishlarning hisobiga ichki energiyasidan iborat bo‘ladi.

Bunda ichki energiya o‘zgarish evaziga jismning chiziqli kengayishi yuzaga keladi, bu asosan:

$$L_k = L_0 + \Delta L = L_0(1 + a\Delta T); \quad (14)$$

$$L_k = f_1(\Delta T) , \quad (15)$$

bu yerda a-qattiq jismning temperaturadan chiziqli kengayish koeffitsenti; L_k -qizdirilgandan keyingi uzunlik, m; L_0 - dastlabki uzunlik, m; ΔL -o‘zgaruvchan uzunlik, m; ΔT -temperaturalar farqi, $\Delta T = T_2 - T_1$; $T_1 - T_2$ -avvalgi va keying temperaturalar, °C.

Yuqoridagi 15-formulada funksiya o‘zgartiruvchisi bu asosan uzunlikni temperaturaga bog‘liqligidir:

$$\delta_0 = f_2(L_k) . \quad (16)$$

Mustahkamlik chegarasi asosan qattiq jismning uzunlik funksiyasiga asosan ifodalanadi. Qattiq jism faqat chiziqli emas hajmiy jihatdan o'zgarishini inobatga olgan holda:

$$V_k = V_0(1 + 3\alpha\Delta T). \quad (17)$$

Yuqoridagi ifodani yozib olamiz $3\alpha = \beta$ deb kiritamiz. Bunda 18-ifoda kelib chiqadi:

$$V_k = V_0(1 + \beta\Delta T). \quad (18)$$

Hajmni temperatura orqali o'zgarishi bu mustahkamlikni o'zgarishiga olib keladi:

$$\delta_0 = f_3(V_k). \quad (19)$$

Puasson koeffitsiyenti fazoviy qattiq jismlar siqilishidan vujudga keladi:

$$\nu = \left(\frac{\varepsilon_D}{\varepsilon_K}\right) = \left(\frac{\Delta d * h_0}{\Delta h * d_0}\right), \quad (20)$$

bu yerda $\Delta d, d_0$ quvur deametrining o'zgarishi va dastlabki o'lchami; $\Delta h, h_0$ quvur balandligining o'zgarishi va dastlabki o'lchami:

$$\nu = f_4(E), \quad (21)$$

bu yerda E-elasticlik moduli.

Qattiq jismning puason koeffitsenti orqali uning normal elasticlik moduli keltirib chiqiladigan o'zaro to'g'ri proporsionallikka ega.

Yuqoridagi proporsionallikdan xulosa qilib chiqilsa quyidagi funksiya kelib chiqadi:

$$\delta = f_5(\Delta T, a, E, \nu). \quad (22)$$

Yuqoridagi ifoda orqali yuklanish to'g'ri proporsionallik asosida bog'liq bo'ladi.

Burg'ilash kolonasini rezbali qulfli ulanish qismini eritib qoplagandan so'ng ulanish mustahkamligini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$\delta = \frac{2a * k(T_2 - T_1)(a_D - a_K) * E_K}{\left(\frac{E_K}{E_D}\right)(1 + \nu_D)(1 + (a_D - a_K)(T_2 - T_1)) + 2 - 4\nu_K}, \quad (23)$$

bu yerda T-kalonnasidagi temperaturalar, °C; a-proporsionallik koeffitsenti; ν -Puasson koeffitsenti; E-materialning elastic moduli, MPa;

Mustahkamlik shartini ishlatib vaqt bo'yicha o'zgarishini qattqlik shkalasiga keltirish uchun 14-formulaga asosan o'lcham o'zgarish uzunligini:

$$\Delta L = \Delta v * \Delta t, \quad (24)$$

bu yerda Δt -vaqt; Δv -o'zgarish tezligi; $L = \lim_{v \rightarrow 0}$.

Mustahkamlik shartini yuqoridagi formulalarga asosan keltirib chiqaramiz:


$$\delta = \frac{2 * k(T_2 - T_1)(a_D - a_K) * E_K}{\left(\frac{E_K}{E_D}\right)(1 + \nu_D)(1 + (a_D - a_K)(T_2 - T_1)) + 2 - 4\nu_K} * t, \quad (25)$$

bu yerda, ν_D va ν_K -qattiq jismning termik ishlov berilgandan oldingi va keyingi hollarda yuzaga keladigan koeffitsiyent hisoblanadi; $K=0.36$; $a_D=0.8$; $a_K=0.7$; $T_2 - T_1 = -196$ °C; $E_K=0.2$ MPa; $E_D=0.21$ MPa; $\nu_D=0.3$; $\nu_K=0.25$.

Burg'ilash quvurlarining rezbali qulf ulanish qismlarini eritib qoplash usuli bilan qayta tiklangandan so'ng, uning mexanik ko'rsatkichlari termik ishlov berish asosida yaxshilanadi. Burg'ilash quvurlarini rezbali qulf ulanish qismlarini mustahkamligini va yemirilishga qarshiligini oshirishga kriogen ishlov berish orqali erishsa bo'ladi.


Kriogen ishlov berishning natijasi ko'p holatlarda termik ishlov berish turlarining ketma-ketligini o'zaro ta'siriga bog'liq bo'ladi, ya'ni ishlov berilayotgan detalni toblash, kriogen ta'sir etish, haroratini xona haroratigacha yetkazish va bo'shatish (otpusk) jarayonlarini o'zaro ketma-ketligi.

Burg'ilash quvurining rezbali qulf ulanish qismlarini eritib qoplash usuli bilan qayta tiklagandan so'ng 3 xil usulda termik ishlov berildi, 5-rasmda ushbu usullarning tavsifi keltirilgan.




5-rasm. Burg'ilash quvurlarining rezbali qulf ulanish qismiga termik ishlov berish usullari

Yuqorida keltirilgan burg'ilash quvurlarining rezbali qulf ulanish qismiga termik ishlov berish usullari orqali olingan namunalarning qattiqligi, cho'zilishdagi nisbiy uzayishi va cho'zilishga ko'rsatadigan qarshilik kuchlari tadqiq qilindi, tadqiqot natijalari 6 va 7-rasmlarda keltirilgan.




6-rasm. Namunalarning qattiqlik va uzilishga ko'rsatadigan qarshilik kuchlarining ko'rsatkichlari



7-rasm. Namunalarning cho'zilishdagi nisbiy uzayishi ko'rsatkichi

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki burg'ilash quvurlarini rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplash usuli bilan qayta tiklashning quyidagi 8-rasmda keltirilgan termik va kriogen ishlov berishning kompleks usulini qo'llash

rezbali qulfli ulanish qismini qattiqligini va cho‘zilishga bo‘lgan qarshiligini oshirish imkoniyatini beradi.



8-rasm. Taklif etilayotgan rezbali qulf ulanish qismiga termik ishlov berish jarayonining ketma-ketligi

Taklif etilgan burg‘ilash quvurining qulfli ulanish qismini qayta tiklash usuli burg‘ilash kolonnasining ekspluatatsiyasi davomida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etdi. Ushbu usul yordamida qayta tiklangan qulf ulanish qismlarini qo‘llash Navoiy kon-metallurgiya kombinati Geologik qidiruv ekspeditsiyasining Markaziy geologik qidiruv partiyasida burg‘ilash kolonnasida sodir bo‘ladigan rezbali qulf ulanish qismlarini uzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan avariylar sonini 65% gacha kamaytirish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning «**Taklif etilayotgan texnik yechimlarning iqtisodiy samaradorligini baholash**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida burg‘ilash suyuqligini yutilishini bartaraf etuvchi burg‘ilash snaryadini qo‘llash natijasida erishilgan va burg‘ilash quvurlarini rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplash orqali qayta tiklash natijasida erishilgan iqtisodiy samaradorliklar baholangan.

Taklif etilayotgan yuvuvchi suyuqlikning katastrofik yutilishini bartaraf etish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini qo‘llash yuvuvchi suyuqlikning to‘liq yutilishi uchraganda uni bartaraf etishning har bir holati uchun o‘rtacha 45 804 000 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berishi aniqlandi. Aksariyat holatlardagi kabi yuvuvchi suyuqlikni yutilishini bartaraf etishning boshqa imkoniyatlari bo‘lmaganda skvajinani o‘tishga ketgan butun sarf-xarajatlarni tejash imkonini beradi.

Burg‘ilash quvurining rezbali qulfli ulanish qismini qayta tiklash natijasida uning ishlash resursi, bazaviy qayta tiklash usuliga nisbatan 65% ga ortishi, har bitta burg‘ilash quvuri uchun 3 120 000 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berishi aniqlandi. Agarda bitta burg‘ilash kolonnasida o‘rtacha 37 dona TBS tipli burg‘ilash quvurlari qo‘llaniladigan bo‘lsa erishilgan umumiy iqtisodiy samaradorlik 115 440 000 so‘mni tashkil etadi.

XULOSA

«Skvajinalarni burg'ilashda texnologik avariylarni va geologik asoratlarni bartaraf etuvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Geologik qidiruv ekspeditsiyasida bir yil davomida burg'ilash uchastkalarida yuzaga kelgan texnologik avariylar va geologik asoratlarning holatlari tahlil qilindi, burg'ilash suyuqligini yutilishi bilan bog'liq avariylar qariib 30% ni tashkil etishi hamda burg'ilash kolonnasidagi yuzaga keladigan nosozliklar 52%, burg'ilash nasosining nosozliklari 32%, burg'ilash uskunasining yuritmaslikdagi nosozliklari 6% va yuk ko'tarib tushirish tizimidagi nosozliklar 10% ni tashkil etishi aniqlandi.

2. Skvajina devorlaridagi darzdorliklar va g'ovakliklarni geometrik o'lchamlarini hisobga olgan holda skvajina stvolidagi darzdorliklarni yotish burchagi va koordinata nuqtalariga asosan yoriq hajmini hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan.

3. Skvajinalarni burg'ilash davomida yuvuvchi suyuqliklarni to'liq, ya'ni katastrofik yutilishi yuzaga kelganda, skvajinaning boshlang'ich diametrini saqlab qolgan holda, yutuvchi hududini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadining konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

4. Burg'ilash suyuqligini to'liq yutilishini bartaraf etuvchi burg'ilash snaryadini samarali qo'llanilishi skvajina diametridan kelib chiqqan holda kengayuvchi mustahkamlash quvuri devorining qalinligiga bog'liqligi aniqlangan va kengayuvchi quvur devorini qalinligini optimal kattaligini skvajina diametriga nisbatan tuzilgan chiziqli funktsiya orqali aniqlash imkonini beruvchi ifoda yaratilgan.

5. Burg'ilash quvurining rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplab qayta tiklashda qattiqlikni ta'minlash uchun termik ishlov berishning optimal parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi matematik model yaratilgan.

6. Burg'ilash quvurlarini qulfli ulanish qismlarini eritib qoplash orqali qayta tiklashda 480Ф-10, ГНП-30ХГСА qoplovchi simini va ЭЛЗ-ФКН-1/55(Б) keramik flyusini 1:1 miqdorida qo'llash eng samarali qoplama hosil qilishi aniqlandi;

7. Burg'ilash quvurining qulfli ulanish qismini eritib qoplash usuli bilan qayta tiklashning yuqori sifati burg'ilash quvurining qulfli ulanish qismi yuzasi avvaldan 250°C gacha qizdirilishi natijasida erishilishi aniqlangan.

8. Burg'ilash quvurlarining rezbali qulfli ulanish qismlarini eritib qoplab qayta tiklangandan so'ng uning qattiqligi, cho'zilishga bo'lgan nisbiy uzayishi va uzilishga ko'rsatadigan qarshilik kuchini yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlash imkonini beruvchi termik ishlov berish jarayonining optimal ketma-ketligi aniqlangan.

9. Ishlab chiqilgan burg'ilash quvurining qulfli ulanish qismini qayta tiklash usuli burg'ilash kolonnasining ekspluatatsiyasi davomida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Ushbu usul yordamida qayta tiklangan qulf ulanish qismlarini qo'llash Navoiy kon-metallurgiya kombinati Geologik qidiruv ekspeditsiyasining Markaziy geologik qidiruv partiyasida burg'ilash kolonnasida sodir bo'ladigan rezbali qulf ulanish qismlarini uzilishi bilan bog'liq bo'lgan avariylar sonini 65% gacha kamaytirish imkonini berdi.

10. Taklif etilayotgan yuvuv suyuqlikning katastrofik yutilishini bartaraf etish imkonini beruvchi burg'ilash snaryadini qo'llash yuvuvchi suyuqlikning to'liq yutilishi uchraganda uni bartaraf etishning har bir holati uchun o'rtacha 45 804 000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berishi aniqlandi. Shuningdek, burg'ilash quvurining rezbali qulflari ulanish qismini qayta tiklash natijasida uning ishlash resursi, bazaviy qayta tiklash usuliga nisbatan 65% ga ortishi, har bitta burg'ilash quvuri uchun 3 120 000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОЙСКОЕ ОТДЕЛЕНИЕ АКАДЕМИИ НАУК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НОРМАЕВ КОБИЛБЕК ХУСАНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ АВАРИЙ И ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ
ПРИ БУРЕНИИ СКВАЖИН**

04.00.16 – Горные машины

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Навои – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.4.PhD/T5003.

Диссертация выполнена в Навоийском отделении Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.ndki.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель: **Джурраев Рустам Умарханович**
доктор технических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Муминов Рашид Олимович**
доктор технических наук (DSc), доцент

Аширов Фуркат Усубович
доктор философии (PhD) по техническим наукам

Ведущая организация: **АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат»**


Защита диссертации состоится 27 декабря 2024 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.17/04.06.2021.T.06.02. Адрес: 210100 г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-04-40; факс: (79) 223- 49-66. E-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com


С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за №174). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66.


Автореферат диссертации разослан «11» декабря 2024 г.

(реестр протокола рассылки № 154 от «7» декабря 2024 г.).




И.Т.Мислибаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


И.П.Эгамбердиев
И.о. Ученого секретаря Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент


А.Б.Тухташев
Заместитель председателя научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире расширения разведки и добычи полезных ископаемых, является основной базой индустрии, повышающий всех отраслей народного хозяйства любой страны. Своевременное ликвидация и предотвращение геологических и технологических аварий и осложнений при ведении буровых работ – является одним из главных факторов, способствующих сократить сроки поиска и разведки месторождения, а также эксплуатации технологических и технических скважин. В процессе бурения скважин предотвращение простоев, связанных с поглощением бурового раствора и авариями в бурильной колонне позволяет снизить себестоимость и сроки буровых работ, это в свою очередь приводит к повышению производительности и эффективности буровых работ. Задачи, связанные с снижением сроков и затрат, а также повышением эффективности буровых работ до конца не решены и в настоящее время их решение приобретает все большее значение.

